



TASDIQLAYMAN

O'zDJTU rektori y.v.b

B.Kulmatov

2023 yil

Universitet Kengashining 2023 yil 27 apreldagi
9-son Bayonnomasi bilan tasdiqlangan

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limining

NIZOMI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-269-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-447-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining (keyingi o'rinlarda "Vazirlik" deb yuritiladi) 2023-yil 27-martda "Davlat oliy ta'lim muassasalarida Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 72-sonli buyrug'iga asosan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (bundan buyon matnda "Universitet" deb yuritiladi) Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limining (keyingi o'rinlarda "Bo'lim" deb yuritiladi) asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, qo'yiladigan talablar javobgarligi, faoliyatini tashkil etish qoidalarini belgilaydi.

2. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari, universitet Kengashi qarorlari, universitet rektori buyruqlari va topshiriqlari hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

2- bob. Bo'limning asosiy vazifalari va funksiyalari

3. Bo'limning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

4. Universitetda kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va monitoringini olib borish.

5. Talabalar bilimlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalarning fanlarni o'zlashtirish darajasini o'rganib borish va tahlil qilish.
6. Ta'lim sifatini ta'minlay oladigan professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish, jumladan salohiyatli o'qituvchilarni tanlash, ishga qabul qilish, ularning kasbiy mahorati va malakasini oshirish imkonini beradigan (ob'ektiv) shaffof tashkiliy mexanizmlarni yaratish.
7. Professor-o'qituvchilarning dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilish va universitet rektoriga ma'lumotlar kiritib borish.
8. Professor-o'qituvchilar tomonidan mehnat intizomiga rioya etilishi xolati monitoringini olib borish.
9. Universitet ichki tartib qoidalari va mehnat intizomiga rioya qilmagan pedagog xodimlarga nisbatan intizomiy jazo chorasini ko'rish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritish.
10. Pedagog xodimlarni faoliyatlaridan kelib chiqib, ularni mukofotlash bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritish.
11. Universitetni ichki baholashdan o'tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish.
12. Universitetni attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonlarini tashkil etishda ishtirok etish.
13. Oliy ta'lim muassasalari milliy reytingini aniqlash va baholashga oid ma'lumotlarni to'plash va belgilangan tartibda vazirlikka taqdim etish.
14. O'quv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to'g'ri tashkil etilganligi va HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o'rganib borish (jumladan, axborot tizimiga ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi).
15. Malaka talablari, o'quv reja va dasturlarning kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish.
16. Bitiruvchi talabalarning kadrlar bozoridagi o'rni, ularga ehtiyoj, sohaning yashovchanlik darajasi yuzasidan kengaytirilgan xulosalarni shakllantirish.
17. O'quv mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlari sifatining nazorati talab darajasida yo'lga qo'yilganligini o'rganib borish.
18. Dars o'tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalb etilganligini o'rganib borish.
19. Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta'minlanganligi bo'yicha ko'rilgan choralar samaradorligini aniqlash.
20. Professor-o'qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o'rganish.

21. Universitet professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini tahlil qilish yoki ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tayyorlashdan o'tganligini yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy daraja, unvonga ega ekanligini o'rganish va xulosalarni universitet rektoriga ma'lum qilish.

22. Professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qilish.

23. Axborot-resurs markazida talaba va o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar holati, fanlar bo'yicha darsliklarning mavjudligi, talabalarga yaratilgan sharoitlarni o'rganib borish va rahbariyatga takliflar kiritish.

24. Mustaqil ta'limni talab darajasida tashkil etilishini o'rganish va tahlil qilish (yo'riqnoma yoki uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta'limni tashkil etish uchun talablarni qo'yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta'minlash).

25. Yakuniy davlat attestatsiyalarini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilgan holda o'tkazilganligini va uning natijalarini tahlil qilish.

26. Universitetda plagiatsga qarshi dasturlarni joriy etilishini ta'minlash (jumladan, akademik halollik tamoyillarini joriy etish va ko'chirmachilikka qarshi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish).

27. Vazirlikning topshirig'iga muvofiq, boshqa oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganishda ishtirok etish.

3- bob. Bo'limning huquq va majburiyatlari

28. Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega.

29. Bo'limga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun belgilangan tartibda universitet tashkiliy tuzilmalaridan zarur ma'lumotlar hamda materiallar olish.

30. Universitet attestatsiyasi natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish.

31. Universitetda ta'lim sifatiga oid qabul qilingan qarorlarning yetarli darajada ijrosi ta'minlanmaganligi aniqlanganda, ma'lumotlarni universitet rektoriga kiritish.

32. Pedagog xodimlarni rag'batlantirish, mukofotlash va ularga nisbatan intizomiy jazo qo'llash bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritish.

33. Belgilangan tartibda universitet Kengashiga saylash va saylanish.

34. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan huquqlardan xizmat vazifasi doirasida foydalanish.

35. Bo'lim quyidagi majburiyatlarga ega.

36. Universitetda ta'lim sifatini nazorat qilishni tashkil etishda mazkur Nizom va tegishli boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish.

37. Xizmat vazifalarini vijdonan, to'liq va belgilangan muddatlarda bajarish.

38. Universitet rektori va yuqori tashkilotlarga taqdim etiladigan ma'lumotlarning to'liq va haqqoniy bo'lishiga mas'ul bo'lish.

39. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi 12-sonli "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ijro intizomiga, o'quv va mehnat intizomiga, mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalar, universitet ustavi, ichki tartib hamda odob-ahloq qoidalariga rioya etish.

4- bob. Bo'lim ishini tashkil etish

40. Bo'lim universitet tarkibida belgilangan shtatlar doirasida rektor buyrug'iga muvofiq tashkil etiladi.

41. Bo'lim yuridik shaxs maqomiga ega emas.

42. Bo'lim 3 nafar xodim: bo'lim boshlig'i va ikki nafar bosh mutaxassisdan iborat.

43. Bo'lim to'g'ridan to'g'ri vazirlikning Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamentiga hisobdor hisoblanadi.

44. Universitet tashkiliy tuzilmasida bo'lim bevosita universitet rektoriga bo'ysunadi va uning faoliyatiga prorektor, dekan va tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

45. Bo'lim faoliyatiga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

46. Bo'lim boshlig'i mehnatiga haq to'lash bo'yicha lavozim razryadiga ko'ra – fakultet dekani lavozimiga tenglashtiriladi xamda ushbu lavozimga nomzodlarni tayinlash va undan ozod qilish vazirlik bilan kelishilgan holda universitet rektorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

47. Bo'lim boshlig'i bo'lmagan (ta'til, betoblik, xizmat safari) davrda uning vazifasini bajarish rektor tomonidan bo'limning bosh mutaxassislaridan biriga yuklatiladi.

5- bob. Bo'limga qo'yiladigan talablar

48. Bo'lim boshlig'i oliy ta'lim tizimi sohasida kamida 5 yil ish stajiga va oliy ma'lumotga ega bo'lishi shart.

6- bob. Bo'limning javobgarligi

49. Bo'lim boshlig'i va xodimlari ushbu Nizom va mehnat to'g'risidagi qonunchilikning vazifa va funksiyalaridan kelib chiqqan holda lavozim yo'riqnomalarida bayon etilgan o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganliklari uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

7- bob. Yakuniy qoidalar

50. Bo'lim faoliyatiga oid nizolar, o'zaro munozaralar olib borish orqali yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

51. Mazkur Nizomni bekor qilish yoki unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilangan tartibda universitet Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.